

BOLALARDA GELMINT-PARAZITAR INVAZIYALARNI ZAMONAVIY TASHXISLASH USULLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Medetbayeva Aziza Dautbay qizi

*Klinik laborator diagnostikasi va DKTF klinik laborator
diagnostikasi kursi bilan kafedrası I-kurs magistranti;*

Daminov Feruz Asatullayevich - DSc,

*Klinik laborator diagnostikasi va DKTF klinik laborator
diagnostikasi kursi bilan kafedrası mudiri, dotsent;*

Qudratova Zebo Erkinovna - PhD,

*Klinik laborator diagnostikasi va DKTF klinik laborator
diagnostikasi kursi bilan kafedrası dotsenti;*

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti

O'zbekiston Respublikasi, Samarqand

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda gijja invaziyalari shifokorlarning asosan, pediatrialarning klinik amaliyotida jiddiy muammolarning biriga aylanmoqda. Ushbu invaziyalarning dolzarbligi bolalar orasida yuqori darajada tarqalishi, klinik ko'rinishlarining polimorfizmi va tashxis qo'yishning murakkabligi bilan bo'g'liq [6,7,9].

Kalit so'zlar: gelmint-parazitar invaziyalar, gelmintozlar, diagnostika, bolalar, usullar.

Gijja invaziyalari bolalar organizmining sog'ligiga ularning toksik metabolitlari orqali doimiy patologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ko'pincha allergiya, immunitet pasayishi, avitaminozlar, hazm qilish tizimi va boshqa a'zolarining zararlanishiga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, butun dunyoda taxminan 5 mlrd kishi ya'ni yer yuzidagi aholining katta qismi gelmint-parazitar invaziyalari kasalliklaridan aziyat chekadi. Shunga qaramay, JSST ekspertlarining fikriga ko'ra, gelmintozlar bugungi kunda "Esdan chiqarilgan kasalliklar"dan biriga aylanib qolgan va ularning tibbiy-ijtimoiy ahamiyati butun dunyoda past baholanmoqda. O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan gelmintozlar: enterobioz, askaridoz va trematodozlaridir. Enterobioz bilan kasallanish ko'rsatkichi 100ming aholiga 1100 holatni tashkil etadi. Bemorlarning 90% ini asosan 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi. Askaridoz bilan kasallanish ko'rsatkichi esa 100ming aholiga 100 holatdir. Ayni paytda gelmintozlarni aniqlash uchun oddiy, arzon va samarali usullar mavjud emas. Bu holat klinik laboratoriya diagnostikasida dolzarb bo'lgan muammolarning biriga aylangan [8,9,10].

Gelmintozlarning diagnostikasi klinik-epidemiologik va klinik-laboratoriya

ma'lumotlariga asoslanadi. Hozirgi vaqtda diagnostika qilishning eng keng tarqalgan usuli gelmint tuxumlarini mazoklarda, tirnoq osti bo'shlig'idan olingan surtmalar, perianal sohadagi teri yoki applikatlarda mikroskopik tekshirish orqali aniqlashdir. To'g'ridan-to'g'ri vizual aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan usullar minimal diagnostika materialini va ko'p marta qayta tekshiruvni talab qiladi. Ko'p holatlarda bu usullar samarali natija bermaydi [10].

Immunologik qon tahlili gelmintlarga qarshi antigen va antitanachalarning mavjudligini aniqlash imkonini beradi, natijaning ishonchliligi gelmintlarning organizmdagi soni va hayot tsikliga bog'liq. Immunoferment tahlil yuqori sezuvchanlik va aniqlikka ega bo'lib, 93% aniqlik bilan gelmint turini, ularning sonini aniqlash, rivojlanish jarayoni dinamikasini kuzatish imkonini beradi, bu antitanachalar darajasiga qarab aniqlanadi. Ushbu usulning kamchiligi shundaki, u faqat lyambliya, opistorx, trixinella, askarida, toksokara va toksoplazma kabi chegaralangan parazitlar doirasiga taalluqlidir [8,9].

Serologik tahlilda gelmintlarga qarshi antitanachalar mavjudligini aniqlaydi (ishonchliligi taxminan 60%). Barcha holatlarda maxsus antitanachalarni aniqlash usullari yetarli darajada aniqlik va ishonchlilikka ega emas. Gelmintning antigen tarkibi nafaqat turiga, balki rivojlanish bosqichiga ham bog'liq, tuxumdan yetuk gelmintga qadar rivojlanish jarayonida gelmintlar antigen tarkibini o'zgartiradi. Bundan tashqari, immunodiagnostikada asosan gelmintning ekskretlari va sekretlariga reaksiya sifatida mezbon organizmda ishlab chiqilgan somatik antitanachalar qo'llaniladi [5,6,7].

Gelmintlarni polimeraz zanjir reaksiyasi (PCR) orqali aniqlash usuli yuqori darajada aniq va sezuvchan hisoblanadi, ammo uning qimmatligi va murakkabligi tufayli, masalan, bolalar muassasasidagi bolalar guruhini tekshirish uchun ommaviy skrining o'tkazishda qo'llab bo'lmaydi [1,2,3,4].

Inson immuniteti gelmintlarning mavjudligiga har doim to'g'ri reaksiya bildirmaydi (ularni tanib yo'q qilmaydi). Bu ayrim gelmintlar qattiq va kimyoviy jihatdan barqaror kapsulaga egaligi bilan izohlanadi, bu kapsula inson immun tizimi tomonidan tanilmaydi. Qorin bo'shlig'i organlarini ultratovushli, rentgenologik yoki kompyuter tomografiyasi orqali tekshirishda gelmintozlarning bilvosita belgilari aniqlanishi mumkin: gepatosplenomegaliya, jigar va tala parenximasining mayda giperekhogen signallar tufayli bir xil emasligi, tala qavatlarida limfa tugunlarining kattalashgani va gelmintlarning o'zi.

Shunday qilib, xulosa qilib aytganda gelmintozlarning laborator bilvosita belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin: ahamiyatli anemiya, bazofiliya, eozinofiliya va jigar fermentlari darajasining oshishi. Hozirgi davrda gelmintlarni aniqlash uchun laboratoriya tekshiruvlarida 100% ishonchli va aniq usullar mavjud emas. Gelmintozlarni diagnostika qilishda eng ishonchli usullar polimeraza zanjir reaksiyasi

va biorezonans diagnostikasi hisoblanadi. Gelmintozlarni aniqlash uchun laboratoriya va instrumental usullarning kompleksidan foydalanish tavsiya etiladi [2,4,6,8,10].

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduhakimov B. A. et al. BOLALAR VA O'SMIRLARDA BIRLAMCHI TUBERKULYOZNING O'ZIGA XOS KECHISH XUSUSIYATLARI VA KLINIK-LABORATORIYA USULLARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – T. 32. – №. 3. – С. 139-143.
2. Бердиярова Ш. Ш. и др. КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНАЯ ДИАГНОСТИКА ФОЛИЕВОЙ КИСЛОТОДЕФИЦИТНОЙ АНЕМИИ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 49. – №. 3. – С. 46-53.
3. Umarova T. A., Kudratova Z. E., Axmadova P. ROLE OF CONDITIONALLY PATHOGENIC MICROFLORA IN HUMAN LIFE ACTIVITIES //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 29-32.
4. Muhamadiyeva L. A., Kudratova Z. E., Sirojeddinova S. Pastki nafas yo'llari patologiyasining rivojlanishida atipik mikrofloraning roli va zamonaviy diagnostikasi //Tadqiqotlar. Uz. – 2024. – Т. 37. – №. 3. – С. 135-139.
5. Umarova T. A., Kudratova Z. E., Norboyeva F. MODERN ASPECTS OF ETIOLOGY AND EPIDEMIOLOGY OF GIARDIAS //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 25-28.
6. Isomadinova L. K., Daminov F. A. GLOMERULONEFRIT KASALLIGIDA SITOKINLAR AHAMIYATI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 49. – №. 2. – С. 117-120.
7. Umarova T. A., Kudratova Z. E., Maxmudova H. MECHANISMS OF INFECTION BY ECHINOCOCOCOSIS //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 18-21.
8. Даминов Ф. А., Исомадинова Л. К., Рашидов А. ЭТИОПАТОГЕНГЕТИЧЕСКИЕ И КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ САЛЬМОНЕЛИОЗА //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 49. – №. 3. – С. 61-67.
9. Umarova T. A., Kudratova Z. E., Baxromova M. AUTOIMMUNE DISEASES: NEW SOLUTIONS IN MODERN LABORATORY DIAGNOSTICS //International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2024. – С. 78-81.
10. Бердиярова Ш. Ш. и др. УЗЛОВОЙ ЗОБ И ЕГО КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНАЯ ДИАГНОСТИКА //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 49. – №. 3. – С. 38-45.